



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|----------------|--|
| 1. | B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. | Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. | X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. | U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. | D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. | G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. | Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. | Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. | N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. | M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. | S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|-----------------|---|
| 1. | M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. | M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. | U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. | F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. | L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. | M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. | Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. | M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. | M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. | F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. | N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. | M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

PEDAGOGIK TA'LIMDA INNOVATSION METODLAR VA ULARNING QO'LLANISHIDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR

Nazarova Maftuna Anvarovna,

Osiyo Xalqaro Universiteti 1-P23-guruh talabasi

Ramazonova Salomat Saidovna,

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanishning dolzarbligi va samaradorligi tahlil qilinadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar ta'lim sifatini oshirish o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Maqolada innovatsion metodlarning turlari, ularning an'anaviy usullardan farqlari hamda ta'lim jarayonidagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, innovatsion kasbiy faoliyat, ta'lim, metod, integratsiya, sifat, samara.

Kirish: Globallashib borayotgan bugungi kunda har bir soha va tizim faoliyatini innovatsion g'oyalar va texnologiyalar asosida olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Ta'lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o'qitish metodlari, ta'lim standartlari, darslik va o'quv qo'llanmalarini yangilash zarur. Bilim berishda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish, tarbiyada esa milliy an'ana va qadriyatlarga suyanish muhim". Ya'ni O'zbekistonning ta'lim tizimi zamonaviy dunyo talablari bilan moslashgan, samarali, ilm-fanga asoslangan bo'lishi, eski, natija bermaydigan usullarni qayta ko'rib chiqishimiz kerakligi, zamonaviy fan, texnologiya, raqamli vositalardan foydalanishimiz, ta'limni hayot bilan bog'lab, amaliy ko'nikmalarga e'tibor qaratishimiz zarurligini ta'kidlamochim. Ta'lim tizimi "faqat nazariya emas", balki amaliyotga yo'naltirilgan, zamon bilan hamnafas bo'lishi kerak. Bundan tashqari pedagog innovatsion faoliyatining eng muhim va markaziy masalasi o'quv jarayonini samarali va sifatli tashkil etishdan iborat. Ta'lim berishda turfa xil usullar ya'ni metodlar mavjud. O'qituvchi qay uslubda dars bermasin maqsadiga yetish imkonini izlaydi, bu borada, ta'lim metodlari va innovatsion metodlardan foydalanadi. Ta'lim metodlari shu vagtga qadar o'zining samarasini ko'rsatib kelmoqda va zamon muallimlari yangicha uslubda dars o'tib yanada yaxshi natijalar olishga intilmoqdalar.

Asosiy qism: "Metod" - yunoncha "metodos" - "yo'l" degan so'zdan paydo bo'lib, u tadqiq qilish ma'osini anglatadi. Ta'lim metodi ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning anig maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatdir. Ta'lim metodlari - o'qitishning o'z oldiga go'yan maqsadlariga erishish usullarini hamda o'quy materialini nazariy va amaliy yo'naltirish yo'llarini bildiradi. O'qitish metodlari ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining qanday bo'lishi, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda ta'lim oluvchilar qanday ish-harakatlarini bajarishlari kerakligini belgilab beradi. Shuningdek, ta'lim metodi o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning o'qish vazifalarini bajarishga ajratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yo'lidir. Ta'lim metodlari tevarak-atrofdagi dunyoni bilishning umumiy qonuniyatlarini tushunishga bog'liqdir, ya'ni ular falsafiy metodologik asosga ega va ta'lim jarayonidagi qarama-qarshiliklarni, ta'lim jarayonining mohiyatini va tamoyillarini to'g'ri anglash natijasidir. Metodlar bir qancha asosiy guruhlardan iborat bo'lib, ularning har biri o'z navbatida kichik guruhlar va ularga kiruvchi alohida metodlarga bo'linadi. O'quv-biluv faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayonining o'zi esa axborot uzatish, qabul qilish, anglash va o'quv axborotlarini esda saqlashni hamda olinadigan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olishni nazarda tutishni hisobga olsak, birinchi guruh metodlariga so'z orgali axborotni uzatish va eshitish orqali qabul qilish metodlari og'zaki metodlar; hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar; ikkinchi guruh metodlariga o'quv axborotlarini ko'rgazmali uzatish va ko'rish orgali qabul qilish metodlari

ko'rgazmali metodlar: tasviriy, namoyish qilish va boshqalar; uchinchi guruh metodlariga o'quv axborotini amaliy mehnat harakatlari orgali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laboratoriya tajribalari, mehnat harakatlari va boshqalar) kiradi. O'qituvchi bilimlarni og'zaki bayon etsa, bolalar uni tinglaydi. O'qituvchi mustaqil ish topshirsa, o'quvchilar bajarishadi. O'quv-tarbiya jarayonida ta'lim metodlarining samaradorligini oshirish maqsadida o'qitish va o'qish metodlari majmuasidan foydalaniladi. Keling, bugungi kunda ta'limdagi innovatsion metodlar haqida gaplashsak, avvalo, innovatsion metodlar deganda – ta'lim jarayonini yangicha, ijodiy, zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish usullari nazarda tutiladi. Masalan: interaktiv darslar (debat, "aqliy hujum", "klaster"), axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, raqamli ta'lim platformalari (Zoom, Moodle, Edmodo va boshqalar), "STEAM", "Flipped Classroom", "Project-based learning" kabi uslublar, ammo bu usullarni amalda qo'llashda bir qator muammolar uchramoqda. Ya'ni, ko'plab pedagoglar hali ham an'anaviy o'qitish uslublaridan chiqmagan. Sababi yangi texnologiyalarni bilmaslik, zamonaviy metodlardan foydalanish ko'nikmasining yetishmasligi, shuningdek, innovatsion dars tayyorlash o'qituvchidan ko'p vaqt ijodkorlik, tayyorgarlik va texnik bilim talab qiladi. Lekin maktab va oliygohlarda o'qituvchilarning ish yuklamasi juda katta, bu esa ularni yangilik yaratishga imkon bermaydi. Natijada, dars jarayoni yangicha shaklda o'tmaydi, o'qituvchi faqat nazariya bilan cheklanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlash faqat ularning bilimlarini oshirish bilan cheklanmaydi.

Xulosa. Innovatsion metodlar (debat, klaster, "aqliy hujum", loyiha asosida o'qitish va boshqalar) o'quvchini faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchiga aylantiradi. Bu esa o'quvchining darsdagi ishtirokini oshiradi va bilimni mustahkam eslab qolishiga yordam beradi. An'anaviy ta'limda o'qituvchi asosiy manba bo'lsa, innovatsion ta'limda u yo'l boshchi va maslahatchi rolida bo'ladi. Bu yondashuv o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro ishonch, erkin muloqot va ijodiy muhitni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A. Abduqodirov, Innovatsion pedagogika va ta'lim tizimini rivojlantirish masalalari. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020 y.
2. O'. Asqarova, M.Nishonov, M.Xayitbaev "Pedagogika" T., "Talqin" 2008- y
3. R.Mavlonova "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2004- y.